



TEMURIYLAR DAVRIDA FARZAND TARBIYASI

Mahmudov Bekzod Eshqobil o'g'li

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti.

Tarix yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21696542>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-iyul 2026 yil

Ma'qullandi: 28-iyul 2026 yil

Nashr qilindi: 30-iyul 2026 yil

KEYWORDS

Temuriylar davri, farzand tarbiyasi, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ilm-ma'rifat, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Temur tuzuklari, vatanparvarlik, yosh avlod.

ABSTRACT

Mazkur maqolada, Amir Temur va temuriylar davrida farzand tarbiyasining o'рни va unga qay darajada e'tibor berishi haqida ma'lumot keltirilgan. Shu bilan birga, farzand tarbiyasida temuriy malikalarning ham qilgan xizmati alohida ahamiyatga egadir.

Temuriylar davrida tarbiya islomiy qadriyatlar, milliy an'analar va davlat manfaatlari uyg'unligida shakllangan. Tarbiya insonning nafaqat bilim olishi, balki axloqiy fazilatlarni egallashi, jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qilishi bilan bog'liq jarayon sifatida qaralgan.

Amir Temur, ko'p mashhur muarrixlar ta'kidlaganlaridek, ilmning qadriga etadigan, uni rivojlantirishga alohida bel bog'lagan, dunyoning eng yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol suhbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi. Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning xonadonida boshlangan edi desak to'g'riroq bo'ladi¹. Saroyda temuriy shahzoda va malikalarga mo'ljallangan alohida ta'lim-tarbiya maktabi bo'lgan. Ularga bir necha til, tarix, falsafa, hisob-kitob ilmi, Qur'oni Karim va boshqa ko'plab fanlar o'rgatilgan.

Yosh bolalarga ta'lim berish 4–5 yoshdan boshlangan. Saroyda maxsus tarbiyachi kishilar — qissaxonlar bo'lib, ular tarixda o'tgan podshohlar, payg'ambarlar, ularning hayotida bo'lib o'tgan ibratli va salbiy voqealar, hikoyalar, rivoyatlarni aytib, bolalarda yaxshi-yomon haqidagi fikrlarni shakllantirib borganlar². Masalan, Mironshoh Mirzo uyushtirgan Ibn al-Asirning "Al-komil fit-tarix" ("Mukammal tarix") kitobi tarjima qilib berilgan edi. Sohibqiron harakatlari tufayli, uning avlodlari ichida Muhammad Sulton, Ulug'bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysung'ur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kuchkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, xonimlar, ma'naviyat va ma'rifat jonkuyarlari bob bo'lib, ular ilm-fan, ma'naviyatning qadriga etadigan ajoyib insonlar

¹ Ali, M. Amir Temur solnomasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 12 b.

² Шохистахон Ульжаева – O'zbekistan tarixi ilmiy-amaliy jurnal. Facebook / 2017. 4- aprel

bo'lib etishdi. Ularning sa'y-harakatlari bilan madaniyatimiz yuksak darajalarga erishdi³. U bu haqida "Temur tuzuklari"da shunday keltiradi:

Amr qildimki, to'ng'ich o'g'lim Muhammad Jahongir valiahdim bo'lsin. U viloyat hokimi bo'lib, o'n ikki ming otliq askarga ulufa olsun.

Ikkinchi o'g'lim– Umarshayx o'n ming otliq askarga ulufa va bir viloyat olsun.

Uchinchi o'g'lim– Mironshoh to'qqiz ming otliq askarga ulufa olib, bir viloyatni tasarruf qilsin.

To'rtinchi o'g'lim– Shohrux yetti ming otliq askarga ulufa olib, bir viloyatga ega bo'lsin.

Nabiralar esa har qaysisi iste'dodiga yarasha uch mingdan yetti ming otliqqacha ulufa olib, bir viloyatga egalik qilsin.

Va yana menga qavm-qarindoshligi bor kishilarga, o'z holiga qarab va qobiliyatiga yarasha birinchi darajali amir martabasidan tortib to yettinchi darajali amir martabasigacha bo'lgan amirlik va valiylik mansablari berilsin. Ularning har biri o'z martabasiga yarasha ish tutib, haddidan oshmasin. Bunga xilof ravishda ish tutganlar, javobgarlikka tortilsinlar⁴. Ma'lumotlarga ko'ra, Sohibqiron Amir Temur qissaxonlar bilan ba'zan sinovdan o'tkazish uchun suhbatlar uyushtirib, ularning tarix, adabiyot va boshqa fanlarga taalluqli bilimlarini tekshirib turgan. Temuriylarga davlatni tuzish va boshqarish, inson ma'naviyati, odobi, boshqalarga nisbatan munosabati va muomala madaniyati, chet ellar bilan aloqalar o'rnatish tartiblari va boshqa barcha ikir-chikir masalalar ham o'rgatilgan. O'z davrining eng mashhur bilimli kishilari qissaxon etib tayinlanib, o'z bilimini turli o'yinlar va boshqa usullar orqali boyitib borganlar. Masalan, temuriyzodalarda matnni yod olish, tez aytish, topishmoq tuzish, javobini topish, aqliy hujum uyushtirish orqali ongni charxlash, muammoga mantiqiy yondashish, har bir voqeadan xulosa chiqarish, ularga baho berish qobiliyati shakllantirilgan. Bu davrda madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar faoliyat yuritgan. Mirzo Ulug'bek tomonidan tashkil etilgan ilmiy muhit yoshlarning ilm-fanga qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynagan. Masalan, Mirzo Ulug'bekka balog'at yoshigacha Shoh Malik otaliq etib belgilangan edi⁵.

Farzandlarni ilm olishga rag'batlantirish, ularning tafakkurini rivojlantirish va bilimli inson sifatida voyaga yetkazish davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblangan. Natijada astronomiya, matematika, tarix, adabiyot va boshqa fanlar rivojlangan.

Farzandlari va nabiralari yoshligidan harbiy san'at, jang strategiyalari va davlat boshqaruvi bo'yicha ta'lim olishgan. Ular Temurning yurishlarida ishtirok etib, amaliy tajriba orttirgan. Masalan, Shohruh yoshligidan otasining safarlarida bo'lgan va keyinchalik Movarounnahrni boshqargan.

Sohibqiron o'z o'g'li Shohruh Mirzoni, suyuqli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzo va boshqa mirzolariii bevosita zukko Saroy Mulk xonim tarbiyasiga topshirgan edi⁶. Ibn Arabshohning ma'lumotlariga ko'ra, hatto qiz tug'lsa ham ular o'z nomlari bilan atalmagan, balki "mastura", "pardali bola" deb atalgan. Saroymulkxonim –

³ Ali, M. Amir Temur solnomasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 12 b.

⁴ Temur tuzuklari. – Toshkent: Ochiq nashriyoti, 2021. 105 b

⁵ Шохистахон Ульжаева – O'zbekiston tarixi ilmiy-amaliy jurnal. Facebook / 2017. 4- aprel

⁶ Fayziyev T. Temuriy malikalar. Toshkent, 1994.

Bibixonim, Sevinbeka – Xonzoda Begim, To'kal xonim – Kichik xonim kabi ulug'lovchi nomlar bilan atalgan va ularga katta hurmat-ehtirom ko'rsatilgan.

Temuriylar davrida "otaliq" tizimi ham muhim tarbiya vositasi bo'lgan. Otaliqlar shahzodalarga nafaqat ustoz, balki siyosiy va harbiy masalalarda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi murabbiy vazifasini bajargan. Bu orqali yosh avlod davlatni boshqarish sir-asrорlarini erta yoshdan o'rganib borgan. Bundan tashqari Amir Temur o'z asarida farzandlari, nevaralari tarbiyasi haqida quyidagicha keltirib o'tadi:

Amr qildimki, agar o'g'illarimdan qaysi birovi saltanat martabasiga da'vogarlik qilib bosh ko'tarar ekan, uni urib-so'kib, o'ldirishga yoki muchasidan biron joyini kamaytirishga hech kim jur'at qilmasin, lekin uni ko'z tagida saqlasinlarki, toki o'z da'vosidan qaytsin va Tangri taoloning mulkida fasod chiqmasin. Agarda nabiralari yoki qavm-qarindoshlar dushmanlik qilishsa, ularni maoshlaridan mahrum qilib darvish holatiga solsinlar. Saltanatim qo'rg'onlari bo'lmish amirlar agar ish ustida nifoqqa borsalar, ulardan amirlik martabasi va yerlari tortib olinsin. Agar davlatga ziyon yetkizgudek ish qilgan bo'lsalar, ular boshqa amirlarga tobe' etilsinlar. Agar sipohiylik ishlarida yalqovlik qilgan bo'lsalar ishlaridan bo'shatilib, yozish chizish bilan shug'ullanuvchilar orasidan ish berilsin. Agar shundan keyin ham xatolikka yo'l qo'ysalar, ikkinchi bor xizmatga olmasinlar. Saltanat saroyining ishonchli va e'tiborli kishilari bo'lmish vazirlar xususida shunday buyruq berdim. Agar bular o'z faoliyati davrida saltanatni yiqitish qasdida davlatga xiyonat qilgan bo'lsalar ham, ularni o'ldirishda shoshilmasinlar, balki avval xabar beruvchilarning o'zlari kimligi, da'volarining rost-yolg'onligini mahak toshiga urib tekshirib ko'rsinlar. Chunki ko'p hollarda hasadchilar va g'iybatchilar yo ko'rolmay, yoki tamagirlik bilan yolg'on to'qib, chinday qilib yasab chiqaradilar va palid maqsadlariga yetishadilar.

Davlat ichida talay olchoq, yomon odamlar bordurki, davlat dushmanlarini yaxshilab, uning jon fidolarini turli makr-hiylalar bilan xarob qiladilar. Bularning maqsadlari saltanat qo'rg'oniga raxna solishdir. Chunonchi, amir Husayn mening vazirlarimdan birini aldab, davlatimning tayanchi, ikki qo'li bo'lmish amir Iki Temur va amir Jokuni menga qarshi qo'ymoqchi bo'lib gap chiqardi. Men uning xiyonatini farosatim-la sezib qoldim, shuning uchun ular xususida aytilgan hamma gaplarni eshitmaganga oldim.

Chunonchi shunday voqea yuz bergandi. Yaqinlarimdan ba'zilar yolg'iz qolganimizda va odamlar oldida ulug' va e'tiborli amirlarimdan bo'lgan amir Abbosga hasad va dushmanlik qilib, uning haqida bo'lmag'ur gaplarni aytdilar. Yolg'on so'zlari shamoli bilan g'azabim o'tini alangalatdilar. Natijada gaplarini tekshirib ko'rmasdan g'azab ustida amir Abbosni o'linga buyurdim. Oxir-oqibatda Agar o'zlashtirib olgan mablag'i, o'ziga tegishli ulufa miqdoriga teng bo'lsa, mazkur mablag' unga sovg'a-in'om o'rnida berilsin. Agar o'zlashtirib olgan mablag'i maoshidan ikki barobar ortiq bo'lsa, ortig'i oladigan maoshi hisobidan ushlab qolinsin. Agar maoshidan uch barobar ko'p mablag' olgan bo'lsa, hammasi saltanat xazinasiga tortiq sifatida olinsin.

Yana hukm qildimki, vazirlarni ortiqcha siylamasinlar, chunki alohida izzat-ikrom ko'rsatib, o'zlarini ularning nazarida obro'-e'tiborsiz qilib qo'yadilar. Bu esa saltanatga ziyon yetkazishi mumkin.

G'arazgo'y, buzuqi va hasadgo'y odamlarning vazirlar haqidagi uydirmalarini eshitmasinlar, chunki bu tabaqadagi kishilarning dushmani ko'p bo'ladi, negaki, olam ahlining

barchasi dunyotalabdirlar. Agar vazirlar bunday odamlarning ko'ngliga qarasalar, davlatga xiyonat qilgan bo'lurlar, qaramasalar, ular vazirlarga dushmanlik qilurlar.

Chig'atoyxonning bir vaziri bo'lgan ekan. G'arazgo'ylar uni xazinadan bir necha ming oltin o'g'irladi, deb xonga xat yozishibdi. Xatni xonga ko'rsatganlarida, u mazkur vazirni huzuriga chaqirtirib, unga itob qilib debdi: «Sen nazari past odam ekansan. Mendek podshohning vaziri bo'la turib, mamlakatimdan shunchalik oz narsa olibsan!» Dono vazir xonning bu qadar katta ehsonidan mamnun bo'libdi va bor davlatining barchasini keltirib xonga peshkash qilibdi. Bu bilan xon oldida o'z martabasini va obro'-e'tiborini saqlab qolibdi. Itob– qahr-g'azab bilularning amir Abbos haqiga xiyonat qilganliklarini angladim va qilgan ishimdan o'kinib, juda pushaymon bo'ldim. Mamlakat xazinachilari bo'lmish moliya vazirlari, moliya ishlarida xiyonat qilib, boylikning bir qismini o'zlashtirib olgan bo'lsalar, tekshirib ko'rilsin.

Yana hukm qildimki, qaysi bir sipohiy haddidan oshib, qo'l ostidagi kishiga zulm o'tkazar ekan, uni tutib, mazlum qo'lga topshirsinar, toki dodiga o'shalar yetkazsinar. Agar kadxudolar va kalontarlar kichikroq darajadagi odamga zulm qilgan bo'lsalar, qilgan zulmiga yarasha, har kimning ko'tarishicha jarima solsinlar. Agar dorug'alar va hokimlar xalqqa jabr-zulm qilib, ularni xarob qilgan bo'lsalar, qilgan ishlariga loyiq jazo berilsin. Agar biror kimsaning gunohi isbotlangandan so'ng undan jarima olsalar, boshqa yana darra bilan urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasinlar.

O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayerda bo'lmasin, kim tutib olsa Yoso bo'yicha jazolansin. Kimki bironing molini zo'rlik bilan tortib olgan bo'lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinar. Agar kimda kim tish sindirsa, ko'zni ko'r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ahdos qozisiga olib borib topshirsinar. Shariatga oid ishlarni hal etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa ahdos qozisi taftish qilib, so'ng mening arzimga yetkazsin⁷.

Temuriylar davrida oila asosiy tarbiya instituti bo'lib qolgan. Ota-onaning farzand oldidagi mas'uliyati yuqori baholangan. Shu bilan birga madrasa va ustoz-shogird tizimi yoshlarning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynagan.

Umuman olganda, Temuriylar davridagi farzand tarbiyasi shunchaki kitobiy bilimlar bilan cheklanmagan. U bevosita hayotiy va davlatchilik tajribasi, ya'ni "Tuzuklar"dagi qat'iy qoidalar asosida amalda sinalgan tizim bo'lgan. Bugungi kunda ham Temuriylar davridagi tarbiya an'analari o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, yoshlarni vatanparvarlik, ilmga intilish va yuksak axloq ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxat:

1. Ali, M. Amir Temur solnomasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 12 b.
2. Шохистахон Ульжаева – O'zbekistan tarixi ilmiy-amaliy jurnal. Facebook / 2017. 4-aprel
3. Ali, M. Amir Temur solnomasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 12 b.
4. Temur tuzuklari. – Toshkent: Ochun nashryiti, 2021. 105 b

⁷ Temur tuzuklari. – Toshkent: Ochun nashryiti, 2021. 105-107 b

5. Шохистахон Ульжаева – O'zbekistan tarixi ilmiy-amaliy jurnal. Facebook / 2017. 4-aprel.
6. Fayziyev T. Temuriy malikalar. Toshkent, 1994.
7. Temur tuzuklari. – Toshkent: Ochun nashryiti, 2021. 105-107 b

